

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASAL NAMUNALARINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH TAJRIBASI

D.Sobirova

Andijon davlat pedagogika instituti (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7407813>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, masal namunalarini o'qitishda muammoli ta'lism texnologiyalarini va keys topshiriqlarini ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qanday qo'llash mumkinligi haqidagi fikr mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: masal, muammoli savollar, muammoli ta'lism texnologiyalari, keys topshiriqlar.

ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОБЛЕМНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ПРИМЕРОВ ПРОБЛЕМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье освещены идеи о том, как использовать технологии проблемного обучения и кейс-задачи в лекциях и практических занятиях по обучению притчам.

Ключевые слова: притча, проблемные вопросы, проблемные образовательные технологии, кейс-задания.

EXPERIENCE OF USING PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING EXAMPLES OF PROBLEMS IN PRIMARY SCHOOL

Abstract. In this article, ideas on how to use problem-based learning technologies and case assignments in lectures and practical exercises in teaching parables are highlighted.

Keywords: parable, problematic questions, problematic educational technologies, case assignments.

Muammoli ta'lism – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini hisobga olib tuzilgan ta'lism va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lism ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiyligi rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lism ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlanuvchi ta'lism bo'lib qoladi.

Masal namunalarini o'qitishda muammoli ta'lism texnologiyalarini va keyslarni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Amaliy mashg'uloti mavzusi tez yechimga ega bo'lmagan, muammo shaklida talabalarga taqdim etiladi. Muammoli savollar tizimini ishlab chiqish talabalarni puxta o'yagan va imkonli javoblarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ma'ruza mazmuni bo'yicha savollarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- mazmunni aniqlashtirishga yo'naltirilgan, savollar: ma'ruzani ayrim bayonini takrorlash talab etiladi;
- mazmunni kelgusi rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan, savollar: ma'ruzani to'ldirishni talab etadi.

Amaliy mashg'ulot munozarani tashkillashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

– amaliy mashg‘ulot jarayonida berilgan savollarga erkin fikr aytishlari va talabalar tomonidan o‘zlarining javoblarni asoslab berishlarini ta’minlash;

- boshqa talabalar tomonidan mos javoblarning tushunishni ta’minlash;
- aniqlik kiritish, to‘ldirish, o‘zgartirishlarni tushunishni ta’minlash;
- berilgan savollarga tasdiqlovchi javoblar berishni tashkillash-tirish.

Amaliy mashg‘ulotga kirish jarayonida mavzu muhokamasini eslatadi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini, ma’ruza materiali bilan bog‘liqligini asoslaydi. Bilimlarni faollashtirish jarayonida fmaliy mashg‘ulotda keyingi ma’ruzalarni tushunishlari uchun talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarning yetarligini va ularni muhokamadagi ishtiroklarini aniqlaydi. Bilimlar yetarlicha to‘liq bo‘lmaganida zarur bo‘lgan bilimlarni ularni shaxsiy bayon etish ,talabalar bilan suhbat shaklida o‘zlashtirish, aniqlashtirish, o‘zgartirishlarni (ikkinchi variant camaraliroq hisoblanadi) tashkillashtiradi.

Faollashtirilgan bilimlar asosida talabalarni mashg‘ulotda hal etiladigan muammoga, “olib kiradi” va uni ifodalaydi.

1. Muammoni yechishni boshlashdan avval, talabalar belgilangan muammoni qabul qila olishlarini ta’minlash maqsadida, uni dastlabki yechib ko‘rishni tashkillashtiradi. Talabalar bilan birgalikda tavsiya etilayotgan yechimlarni muhokama qiladi, ularda paydo bo‘lgan qiyinchiliklarni aniqlaydi va tahlil qiladi.

2. Muammoni yechish yo‘llarini izlashni tashkillashtirishga o‘tadi: birinchi muammoni ifodalaydi, so‘ngra muammoli savollar orqali va ularga berilgan javoblarni muhokama qilib talabalarni uni yechish yo‘llariga, ya’ni birinchi oraliq xulosaga olib keladi. Shu tartibda keyingi kichik muammolarni yechish yo‘llarini izlashni tashkillashtiradi.

Ta’lim jarayonida o‘ziga xos natija beruvchi ta’im texologiyalaridan biri- keys-stadidir. Bu texnologiya ham muammoli ta’lim texologiyalar qatoriga kiradi.

Ta’lim berish vaziyati – keys-stadi qo‘llashdan maqsad ta’lim oluvchilarini muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq yechim izlashga yo‘naltirishdan iborat.

Quyida **muammoli talim texnologiyalari va keys topshiriqlari** asosida adabiy-estetik qarashlarni shakllantirish yuzasidan o‘tiladigan darsning qismi yuzasidan beriladigan topshiriq bo‘yicha tayyorlanishi mumkin bo‘lgan namunalar keltirmoqchimiz.

“Chumchuq bilan chumoli” masali yuzasidan muammoli ta’lim texnologiyalari va keys topshiriqlari. Dastlab, masal o‘qittiriladi. Masal o‘qittirilgach, talabalar quyidagi talablar asosida muammoni hal qilishga harakat qiladilar:

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo‘llari va harakatlariningiz	Asarda surilgan ilgari estetik qarashlar
Chumchuqning dangasaligi, manmansiragani, erinchoqligi	Chumchuqning o‘ziga ortiqcha bino qo‘yishi	Insonlarda chumchuqa bor bo‘lgan salbiy illatlarga qarshi kurash	Mehnatsevarlik, ishchanlik, kamtarlik

O‘quvchilar bilan suhbat asosida muammoning turi va kelib chiqish sabablari hal etilgani ma’qul, chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asarni tahlil qilish malaka va ko‘nikmalariga ega emas. Muammoning turi va kelib chiqish sabablari aniqlangach,

beriladigan topshiriq muammoni yechish yo'llari va ularning olib bormoqchi bo'lgan harakatlari, asarda ilgari surilgan estetik qarashlar haqidagi ilk tasavvurlari yechiladi.

Muammoli ta'lif texnologiyalari turli rasmlar orqali ham hosil qilish mumkin. Masalan, chumoli va chumchuq (ramziy) rasmi ko'rsatilib, unga bo'lgan o'quvchilarning munosabati so'raladi. Chumchuqning holatidan va chumolining holatidan qanday xulosa cijarish mumkinligi muammo sifatida qo'yilishi mumkin. Har bir o'quvchi o'z fikrlarini yozadi, so'ngra muhokama qilinishi mumkin.

Keys topshiriqlari

Vaziyat. Masalda Chumchuqlar Chumolilarning har kuni tinimsiz yuk tashib yurishlarini mazax qilishi, Chumolilarning esa ularga parvo ham qilmay, indamasdan ishlab yuraverishi, Chumchuqlarning ulardan don so'rashi, o'zlarini baland olishi, natijada Mushukka yem bo'lishi.

Savollar: (masal matniga tayangan holda javob beriladi)

1. Chumchuqlarga qanday ta'rif bera olasiz?
2. Masaldagi asosiy to'qnashuv nimadan iborat?
3. Masal qahramonlarining qaysi gaplari orqali ularga ta'rif bera olasiz?
Misollar keltiring.
4. Masaldagi personajlarni qay tarzda qutblarga ajratish mumkin?

1- keys

"Chumchuq bilan chumoli" masali muammosini, uning sabablarini hamda muammoni yechish uchun oz taklifingizni ko'rsating.

2- keys

"Chumchuq bilan chumoli" masalida qaysi adabiy-estetik qarashlar mavjud?

"Asalari bilan pashsha" masali yuzasidan masali yuzasidan muammoli ta'lif texnologiyalari va keys topshiriqlari

Bu masal yuzasidan ish olib borilganda dastlab rasm ustida ishlash ham yaxshi natija berishi mumkin. O'quvchilar rasm asosida ishlash jarayonida, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, asalari bilan pashshanening ko'rinishlarini ham tasvirlashga harakat qiladilar.

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va harakatlaringiz	Asarda surilgan ilgari estetik qarashlar
Pashshaganing farosatsizligi, ishyoqmasligi	Pashshaganing asalariga bo'lgan qo'pol munosabati	Insonlarda pashshaqa bor bo'lgan salbiy illatlarga qarshi kurash	Farosatli bo'lish, mehnatsevarlik, ishchanlik

O'quvchilar yuqoridaagi kabi ishlarni bajarib bo'lgach, o'zlarining pashshada bor bo'lgan salbiy illatlarga munosabatini, qanday bo'lish kerak ekanligi haqidagi o'qituvchi tomonidan berilgan yo'naltiruvchi savol va topshiriqlarni bajaradilar.

Keys topshiriqlari

Vaziyat. Bahor kelgach, Asalarining asal yig'ishni boshlashi, Pashshanening asalarini xafa qilishi, sharbatining to'kilib ketishi, Pashshanening och, madorsiz, daraxt po'stlog'iga yopishib yotgani.

Savollar: (masal matniga tayangan holda javob beriladi)

1. Asalarining harakatini tasvirlang.
2. Pashshaga qanday ta'rif berasiz? U to'g'ri qildimi?
3. Shunga o'xhash qaysi masalni bilasiz?

1- keys

Insonlarda pashshada bor bo'lgan salbiy illatlarga qarshi qanday kurashish mumkin, deb o'ylaysiz?

2- keys

"Asalari bilan pashsha" masalida, sizningcha, qaysi adabiy-estetik qarashlar tarannum etiladi?

Masal janrini asosida o'rgatish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish ham ko'zda tutiladi, chunki, muammoli ta'limgarayonida ular o'z fikrlarini mustaqil bayon qiladilar, tavakkur qilish jarayoni kechadi. Maktab yoshidagi va boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan o'quvchilarning nutqini ravon qilish juda muhimdir, chunki mazku bolalarning hozirgi zamon talabi asosida jamiyatimiz ishlarida faolligini ta'minlashda ular nutqining ravonligi katta ahamiytaga ega. Nutq – insonlararo aloqa vositasi bo'lganligi uchun ham har bir yosh avlodni nutqiy ko'nikmalarini puxta eggalashga o'rgatish davr talabidir. Albatta, masallarda ham umuminsoniy qadriyatlar ulug'lanadi, badiiy-estetik qarashlar namoyon etiladi.

Masal janri ustida ishlashda muammoli ta'limgarayonida ahamiyati katta. Muammoli ta'limgarayonida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiyligi va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi.

Muammoli ta'limgarayonida o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiyligi bo'lib, insonning bilish va amaliy faoliyatini boshqaruvchi muayyan shaxsiy subyektiv yo'llanma sifatida tushuniladi. Muammoli vazifalardan foydalanish usuli bizga, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, imkonini beradi, bu materialni ta'limgarayonida oluvchilar uchun yanada ko'p dolzarbli qiladi.

REFERENCES

1. K.Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: 2009.
2. Л.В. Голиш, Д.М. Файзуллаева. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. – Toshkent: "Иқтисодиёт" нашр., 2011.
3. Н.Саидаҳмедов. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: "Молия", 2003. 6- bet.
4. T.G'afforova. Boshlang'ich ta'limgarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma / – Toshkent: Tafakkur, 2011. 6- bet.
5. Azimov Akbarjon Niyozidin o'g'li. TEZ AYTISHLAR FONETIK TRENAJYOR SIFATIDA. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7294399>